

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
Q A R O R I

MO‘G‘ULISTONGA OLIY DARAJADAGI TASHRIF
DAVOMIDA QISHLOQ XO‘JALIGI VA OZIQ-OVQAT
SOHALARIDA ERISHILGAN KELISHUVLARNI AMALGA
OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yil 24-25-iyun kunlari Mo‘g‘ulistonga davlat tashrifi davomida erishilgan kelishuvlar doirasida qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sohalarida belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida va to‘liq amalga oshirilishini ta‘minlash maqsadida **qaror qilaman:**

I. Maqsadlar

1. O‘zbekiston va Mo‘g‘uliston o‘rtasida 2025-2026-yillarda qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sohalarida amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning asosiy ko‘rsatkichlari etib quyidagilar belgilansin:

a) Mo‘g‘ulistondan O‘zbekistonga 100 ming bosh mayda shoxli mollarni olib kelish va mahalliy sharoitda naschilik-seleksiya ishlari yordamida ko‘paytirish orqali ularning sonini 2029-yil yakuniga qadar 1 million boshga yetkazish;

b) bosqichma-bosqich jun va kashemirni qayta ishlash hamda tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish;

d) meva-sabzavot va oziq-ovqat mahsulotlarining Mo‘g‘ulistonga eksport hajmini har yili oshirib borib, 10 barobarga ko‘paytirish choralari ko‘rish;

e) O‘zbekiston va Mo‘g‘uliston o‘rtasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish sohasida tajriba almashish va mutaxassislar malakasini oshirishni yo‘lga qo‘yish.

II. Mo‘g‘ulistondan mayda shoxli mollarni import qilishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash

2. Belgilansinki, 2025-yil 1-avgustdan 2027-yil 31-dekabr qadar Mo‘g‘ulistondan mayda shoxli mollarni O‘zbekistonga import qilishda tadbirkorlik subyektlariga:

a) havo transportida tashish xarajatlarining 50 foizi Davlat budjeti hisobidan qoplab beriladi. Bunda ushbu kichik bandeda nazarda tutilgan xarajatlardan talab etiladigan mablag‘lar Davlat budjeti parametrlarida Qishloq xo‘jaligi vazirligiga chorvachilik xo‘jaliklari tomonidan xorijiy davlatlardan import qilingan nasldor qoramol, qo‘y va echki, ona baliq va jo‘jalarni sotib olish xarajatlarining bir qismini qoplab berish uchun ajratilgan mablag‘lar doirasida moliyalashtiriladi;

b) qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lash muddatini foizlar hisoblanmagan holda to‘lov ta‘minotisiz kechiktirib to‘lash imkoniyati beriladi.

3. Iqtisodiyot va moliya vazirligi boshqa xarajatlarni qayta ko‘rib chiqish hisobidan 2027-yil uchun Davlat budjeti parametrlarida ushbu qarorning 2-bandi “b” kichik bandeda ko‘rsatilgan to‘lovlarni qoplab berish bo‘yicha xarajatlarni nazarda tutsin.

4. Markaziy bank, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Qishloq xo‘jaligi vazirligining Mo‘g‘ulistondan mayda shoxli mollarni O‘zbekistonga import qilishda quyidagi takliflariga rozilik berilsin:

Davomi 2-betda

TO‘RTKO‘LNING ZAMONAVIY
QIYOFASI QANDAY YARATILMOQDA?

Bir manzil

Xudoybergan bobo tinimsiz shovqin-suron qilayotgan texnikalar tomon yo‘l oldi. U yo‘l-yo‘lakay ilgari qurilish ishlari bunday qizg‘in bo‘lganini hech eslay olmaydi. Osmonga tirkak bo‘lguday baland kran temir-beton plitani ko‘tarib joylashtirmoqda. Uzoqdan odamlar chumolidek kichkina ko‘rinar ekan. Xudoybergan bobo jarayonga havas bilan uzoq qarab turdi.



Haqiqatan, To‘rtko‘l tumanida birinchi marotaba bunday katta loyiha amalga oshirilmoqda. Unga ko‘ra, 9 qavatdan iborat ko‘p xonadonli zamonaviy turar joy obyekti qad rostlaydi. Tuman tarixida ilk bor bunday baland binoning qurilishi, barchaning kayfiyatini ko‘tardi.

— Loyiha aholiga qulay shart-sharoit yaratish uchun ishlab chiqilgan. Masalan, ushbu uyda do‘kon, sport zal kabi aholi uchun zarur maishiy xizmat ko‘rsatish shoxobchalari ham bo‘ladi. Shuningdek, har bir yo‘lak uchun bir tonnalik lift o‘rnatilib,

quyosh panellari bilan jihozlangan. Shu bois, lift elektr yo‘qligi uchun o‘chib qoldi degan masala bo‘lmaydi, — deydi “EVRO-AZIA” qurilish korxonasi boshlig‘i Erkin Samandarov. — Shu bilan birga, suv ta‘minotiga ham alohida e‘tibor qaratilgan. Texnik sabab tufayli asosiy tarmoqdagi suvda uzilish bo‘lsa ham aholi qiynalmaydi. Chunki 1,5-2 sutkaga yetadigan suv zaxirasi ham yaratilgan. Imoratning tepasida esa dam olish uchun terrasa qilingan. Energiyatejamkor ushbu bino zamonaviy talablarga to‘la javob beradi.

Xudoybergan bobo ana shu binoga havas bilan boqar ekan, ko‘nglidagi o‘y tiliga ko‘chadi: “Shunday uyni qurishning o‘zi bo‘ladimi, ancha ko‘p mablag‘ ketgandir, bunga?!”.

Davomi 2-betda

KONSTITUTSIYAVIY ODIL SUDLOV –
qadr-qimmat, erkinlik va adolat garovi



O‘zbekiston demokratik, huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish yo‘lini tanlab, inson huquq va manfaatlarini jamiyat taraqqiyoti va davlat qurilishi, butun ichki va tashqi siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilab oldi. Ayniqsa, keyingi yillarda mamlakatimizda yangi O‘zbekistonni barpo etish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlar negizida “Inson qadri uchun” tamoyili markaziy o‘rin egallashi inson huquqlarini qo‘llab-quvvatlash, himoya qilish va ularga rioya etish masalalariga ustuvorlik berdi.

Darhaqiqat, Prezidentimizning shu yil 10-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz to‘rt yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarorida qayd etilganidek, mustaqillik, barcha siyosiy-huquqiy kafolatlarni o‘zida mujassam etgan holda, “O‘zbekiston — 2030” strategiyamizni amalga oshirish, jamiyatimizda tinchlik, do‘stlik va hamjihatlik muhitini kuchaytirish, inson qadri, huquq va manfaatlarini ta‘minlash, mintaqamizda yaxshi qo‘shnichilik aloqalarini yanada rivojlantirish, dunyo

Davomi 3-betda

Tahlil

AGROSANOAT:
IQLIM O‘ZGARMOQDA, YONDASHUV-CHI?
YOXUD SAMARA — ZAMIN “MEVASI”

Bugun ko‘pchilikning diqqat e‘tiborida bo‘lgan narsa havo haroratining keskin ko‘tarilishi bo‘lmoqda. Ayrimlar bunday issiqlik so‘nggi yuz yillikda kuzatilmaganini ta‘kidlayapti. Havo harorati muvozanati buzilishi natijasida bir qator jiddiy muammolar o‘rtaga chiqmoqda. Ko‘llarning qurishi, cho‘llanishning kengayishi, muzliklarning tez erishi natijasida chuchuk suv zaxiralari kamayishi butun dunyoda oziq-ovqat xavfsizligiga katta tahdid solmoqda.

Olimlarning ta‘kidlashicha, so‘nggi o‘n yillikda toza suvga bo‘lgan talab 40 foizga oshgan va kelasi 25 yil ichida dunyo oziq-ovqat mahsulotlarining yarmidan ko‘pini yetishtirish xavfi yuzaga keladi. Mutaxassislar qurg‘oqchilikdan zarar ko‘rgan yer maydonlari so‘nggi 120 yil ichida ikki barobar oshgani, shuningdek, qurg‘oqchilikning iqtisodiy zarari keskin o‘sib borayotgani haqida ham ogohlantirmoqda.

2024-yilgi Global oziq-ovqat inqirozlari hisobotiga ko‘ra, 2023-yilda 59 mamlakatda 281 million kishi keskin oziq-ovqat tanqisligiga duch kelgan. Bu raqam 2022-yildagidan (257 million) yanada oshgan bo‘lib, beshinchi yil ketma-ket o‘shishni ko‘rsatmoqda.



Davomi 4-betda

Iftixor

INSON QADRI YUKSAK
YANGI O‘ZBEKISTONDA

O‘zbek haqda so‘zlab beray, kel,
Shamol kabi doim uyg‘oq el,
Bir so‘zli mard, saxiy, tanti fe‘l,
Ko‘kka tog‘lar tirkak Yangi O‘zbekistonda,
Inson qadri yuksak Yangi O‘zbekistonda!

Vatan nomi yangrar jahonda,
Sport, san‘at, ilmu irfonda,
Bobolarning qoni bor qonda,
Mangu jo‘shar yurak Yangi O‘zbekistonda,
Inson qadri yuksak Yangi O‘zbekistonda!

Har sohada ilg‘or, peshqadam,
Havas bilan qaraydi olam,
Ro‘zg‘ori tinch, ko‘ngli xotirjam,
Ushlagay har tilak Yangi O‘zbekistonda,
Inson qadri yuksak Yangi O‘zbekistonda!

Qimirlagan qirlar oshgaydir,
Qalb quvonchdan to‘lib toshgaydir,
Bir cho‘p suqsang, olam yashnaydir,
Gul ochar har kurtak Yangi O‘zbekistonda,
Inson qadri yuksak Yangi O‘zbekistonda!

Dunyo qalqib turgan dengizdek,
Tinchlikparvar el bormi bizdek,
Dunyoga baxt tilaydi o‘zbek,
Yop-yorug‘ kelajak Yangi O‘zbekistonda,
Inson qadri yuksak Yangi O‘zbekistonda!

G‘ayrat MAJID

YANGI MARRA ZABT ETILDI

O‘ZBEKISTONLIK O‘QUVCHILAR
XALQARO KIMYO OLIMPIADASIDA
ENG YAXSHI NATIJA KO‘RSATDI

Bu yilgi Xalqaro kimyo olimpiadasida 4 nafar o‘quvchimiz yuqori natija ko‘rsatgani haqidagi xabar barcha yurtdoshlarimizni sevintiradi, albatta. G‘oliblarga qancha o‘quvchilar havas qildi, ota-ona va o‘qituvchilar faxrlandi. Qolaversa, 2026-yilda ushbu olimpiadaga mezbonlik O‘zbekistonga ishonib topshirildi. Bu salohiyatimizni ko‘rsatish uchun juda katta imkoniyat degani.

Zero, Xalqaro kimyo olimpiadasi — IChO nufuzli xalqaro olimpiadalar qatoriga kiradi. Ma‘lumot o‘rnida aytish joizki, mazkur olimpiadada O‘zbekiston jamoasi 2013-yildan qatnasha boshlagan va birinchi yil 1 ta oltin, 2 ta bronza medalga ega bo‘lgan edi.

Davomi 5-betda



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
Q A R O R I

MO‘G‘ULISTONGA OLIY DARAJADAGI TASHRIF DAVOMIDA QISHLOQ XO‘JALIGI VA OZIQ-OVQAT SOHALARIDA ERISHILGAN KELISHUVLARNI AMALGA OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

Boshlanishi 1-betda

a) chorvachilik yo‘nalishida jalb qilingan xalqaro moliya institutlarining kredit mablag‘larini tadbirkorlik subyektlariga **yillik 10 foiz stavkada (shundan 3 foiz bank marjasi) 5 yil muddatga 2 yillik imtiyozli** davr bilan ajratish. Bunda tijorat banklarining mazkur kichik badda nazarda tutilgan kreditlarni imtiyozli shartlarda ajratish bilan bog‘liq xarajatlari **Davlat byudjetiga to‘lanadigan dividendlarini mos ravishda kamaytirish** hisobiga qoplanadi;

b) tadbirkorlik subyektlariga ajratiladigan kredit mablag‘lari uchun sug‘urta mexanizmidan foydalangan holda **mol-mulk garov ta‘minotini 50 foizgacha** etib belgilash.

5. Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasiga (keyingi o‘rinlarda — Veterinariya qo‘mitasi) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi va viloyat hokimlarining **kafilligi asosida bir oy muddatda qaytarish sharti bilan** Veterinariya xizmati va chorvachilikni rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan **tadbirkorlik subyektlariga** Mo‘g‘ulistondan mayda shoxli mollarni yetkazib berishda **moliyaviy ko‘mak ko‘rsatish huquqi berilsin**.

6. Mo‘g‘ulistondan O‘zbekistonga import qilinadigan mayda shoxli mollarning **hududlar kesimidagi taqsimoti 1-ilovaga muvofiq** tasdiqlansin.

7. Buxoro, Jizzax, Namangan, Navoiy, Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlari hokimlari **bir hafta muddatda** mayda shoxli mollarni parvarishlash uchun ozuqa yeri, chorvachilik majmuasi va mutaxassisi

(veterinar) mavjud bo‘lgan tadbirkorlar ro‘yxatini shakllantirib, Veterinariya qo‘mitasiga taqdim etsin.

8. Belgilab qo‘yilsinki, Yaylov yerlaridan samarali foydalanishni tashkil etish va ularni muhofaza qilish, qorako‘lchilik, teri va jun sanoati sohalarini yanada rivojlantirish bo‘yicha respublika komissiyasi qaroriga asosan Qoraqalpog‘iston, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand va Surxondaryo yaylov xo‘jaliklari balansidagi yerlar Mo‘g‘ulistondan mayda shoxli mollarni O‘zbekistonga kamida **1000 bosh** import qilgan **tadbirkorlik subyektlariga** quyidagi **shartlar asosida to‘g‘ridan-to‘g‘ri** ijaraga beriladi:

a) naslchilik va seleksiya ishlarini rivojlantirish orqali import qilingan mayda shoxli mollarning bosh sonini ko‘paytirib borish;

b) yaylovlarda ozuqabop o‘simlik turlaridan bo‘lgan izen, teresken, quyrovuq, kamforosma, cho‘g‘on, erkak o‘t, oq (qora) saksovlul ekilishini tashkil qilish.

III. Mo‘g‘ulistonga meva-sabzavot va oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qilish ishlarini tashkillashtirish

9. O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Savdo-sanoat palatasi bilan birgalikda **2025-2026-yillarda:**

a) Mo‘g‘ulistonning yirik savdo markazlarida **“O‘zbekiston mahsulotlari”** yarmarkasini tashkil etsin hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini O‘zbekistondan eksport qilib, kelgusida boshqa davlatlarga reeksportni amalga oshirsin;

b) **Ulan-Bator** shahridagi yirik savdo maydonlarida **O‘zbekiston mahsulotlari standini** tashkil etib borsin;

d) **O‘zbekiston — Mo‘g‘uliston** savdo uyini tashkil etsin;

e) Mo‘g‘ulistonning importchi korxonalari vakillaridan iborat delegatsiyaning O‘zbekistonga tashrifini tashkil etgan holda **biznes uchrashuvlar** o‘tkazsin.

IV. Mayin jundan aralash ip va mato ishlab chiqarishni tashkil etish

10. Savdo-sanoat palatasi, “O‘zto‘qi-machiliksanoat” uyushmasi va Qishloq xo‘jaligi vazirligining quyidagi **takliflariga rozilik berilsin:**

a) **2025-yil yakuniga qadar** O‘zbekiston to‘qimachilik fabrikalarida **dastlabki bosqichda sinov tariqasida aralash ip va mato** ishlab chiqarish uchun Mo‘g‘ulistondan **“O‘zsanoateksport”** AJ orqali **markazlashgan holda mayin jun va kashemir** olib kelish. Bunda “Savdoni rivojlantirish kompaniyasi” AJ ushbu maqsadlar uchun **“O‘zsanoateksport”** AJga uning buyurtmanomasiga asosan belgilangan tartibda mablag‘ ajratadi;

b) **2026-yil yakuniga qadar** Mo‘g‘ulistondan import qilingan mayda shoxli mollardan olinadigan **junni qayta ishlash bo‘yicha** mahalliy mutaxassislarining Mo‘g‘ulistonning **kashemir ishlab chiqarish** va to‘qimachilik korxonalarida malakasini oshirgan holda **junni qayta ishlash korxonasini tashkil etish**.

V. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish sohasida **tajriba almashish** va **mutaxassislar malakasini oshirishini** yo‘lga qo‘yish

11. Agrosanoatni rivojlantirish agentligi **2026-yil yakuniga qadar** Mo‘g‘ulistonga sovuqqa chidamli va serhosil **10 ming** dona meva ko‘chatlarini tomchilatib sug‘orish texnologiyalari bilan birga yetkazsin hamda **15 gektar** yer maydonida zamonaviy sanoatlashgan intensiv bog‘ tashkil etishga

ko‘maklashsin. Bunda meva ko‘chatlari va tomchilatib sug‘orish texnologiyalarini sotib olib, uni Mo‘g‘ulistonga yetkazish xarajatlarini qoplash Agrosanoatni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan Agrosanoatni rivojlantirish agentligi huzuridagi “Agrosanoat innovatorlari” MCHJ tomonidan amalga oshiriladi.

12. Qishloq xo‘jaligi vazirligi **2026/2027-o‘quv yilidan** boshlab Toshkent davlat agrar universiteti va Mo‘g‘uliston tabiiy fanlar universiteti o‘rtasida magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha **qo‘shma ta‘lim dasturlari joriy etilishini ta‘minlasin**.

VI. Qaror ijrosini tashkil etish, ta‘minlash va nazorat

13. Bosh vazir o‘rinbosarlari **J.Qo‘chqorov** va **J.Xodjayev ikki oy muddatda** O‘zbekiston va Mo‘g‘uliston o‘rtasida erishilgan kelishuvlar va loyihalarni moliyalashtirish hamda tadbirkorlik subyektlarini aylanma mablag‘lar bilan ta‘minlash maqsadida Sanoatni rivojlantirish jamg‘armasiga **50 million AQSH dollari** hamda Savdoga ko‘maklashish jamg‘armasiga **50 million AQSH dollari** ekvivalentida **2030-yil 31-dekabr**ga qadar qaytarish sharti bilan past foizli mablag‘ jalb qilish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga taklif kiritisin.

14. Vazirlar Mahkamasi (Xodjayev) **ikki hafta muddatda** mazkur qarorning 2- va 4-bandlariga muvofiq quyidagilarni tasdiqlasin:

a) **havo transportida** tashish xarajatlarining **50 foizini** Davlat budjeti hisobidan qoplab berish bo‘yicha vaqtinchalik tartibni;

b) Veterinariya xizmati va chorvachilikni rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari

hisobidan **tadbirkorlik subyektlariga** Mo‘g‘ulistondan mayda shoxli mollarni olib kelish uchun **moliyaviy ko‘mak berish bo‘yicha vaqtinchalik tartibni**.

15. Transport vazirligi **o‘n kun muddatda:**

a) Veterinariya qo‘mitasi bilan birgalikda **mayda shoxli mollarni** Mo‘g‘ulistondan O‘zbekistonga **havo transporti** orqali olib kelish;

b) O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi bilan birgalikda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini O‘zbekistondan Mo‘g‘ulistonga **havo transporti** orqali eksport qilishni tashkil etish choralarini ko‘rsin.

16. Veterinariya qo‘mitasi **bir hafta muddatda** Mo‘g‘ulistondan import qilinadigan mayda shoxli mollar nasli, vazni va yoshi bo‘yicha talablarni ishlab chiqib, hududlar va tadbirkorlarga yetkazsin.

17. **2025-2026-yillarda** O‘zbekiston va Mo‘g‘uliston o‘rtasida qishloq xo‘jaligi sohasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar bo‘yicha **“yo‘l xaritasi” 2-ilovaga muvofiq** tasdiqlansin.

18. Mazkur qaror ijrosini samarali tashkil qilishga mas‘ul va **shaxsiy javobgar etib quyidagilar belgilansin:**

a) **qishloq xo‘jaligi vaziri I.Abdurahmonov** — Mo‘g‘ulistondan **sabzavot va poliz ekinlarini yetishtirish** hamda **agrar sohada ilmiy hamkorlikni** samarali yo‘lga qo‘yishga;

b) **qishloq xo‘jaligi vaziri I.Abdurahmonov** va **Veterinariya qo‘mitasi**

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti

Toshkent shahri,
2025-yil 17-iyul

SH. MIRZIYOYEV

TO‘RTKO‘LNING ZAMONAVIY QIYOFASI QANDAY YARATILMOQDA?

Boshlanishi 1-betda

Ha, ushbu zamonaviy uyning umumiy qiymati 53 milliard so‘mni tashkil etadi. Uning qurilish ishlari 2024-yilning dekabr oyida boshlangan. Ish puxta-pishiq bo‘lishi uchun quruvchilar shoshayotgani yo‘q. Shu bois, ushbu katta loyihani 2026-yil sentyabr oyida foydalanishga topshirish reja qilingan. Lo‘nda qilib aytganda, bugun To‘rtko‘l har tomonlama rivojlanmoqda. Qurilish va obodonlashtirish ishlari avjida. Bundan tuman ahli mamnun.

Albatta, to‘rtko‘lliklar ana shunday zamonaviy uylarni bemalol sotib olishga qurbi yetishi uchun iqtisodiy ahvoli yaxshi bo‘lishi kerak. Shuning uchun tumanida tadbirkorlik, ishlab chiqarish va yangi ish o‘rinlarini yaratishga alohida e‘tibor berilyapti. Shulardan biri “Zavodxo‘ Agro” korxonasidir. Ushbu korxonaga 1,5 million dollar xorijiy investitsiya jalb etilgan. Natijada Xitoydan asbob-uskunalar olib kelinib, polietilen to‘r ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Muhimi, korxona sabab hududda yashaydigan 69 nafar fuqaro doimiy ish bilan ta‘minlandi.

Korxonamiz kuniga 6-7 ming metr polietilen to‘r ishlab chiqarmoqda. Ushbu to‘rdan asosan, dehqonlar qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini quyoshdan himoyalashda foydalanmoqda. Mahsulotlarimiz nafaqat ichki bozorda,



balki chet davlatlarga ham eksport qilinaypti. Muhimi, mahsulotimiz ekologik toza va qayta ishlash imkonini ham beradi. Shuningdek, xodimlarimiz har 6 oy va bir yilda Xitoyga borib, malaka oshirib keladi, — deydi korxonaning ish yurituvchisi Ixtiyor Karimov.

“Harakatda — barakat” deganlaridek, to‘rtko‘llik ishbilanmonlar berilayotgan imkoniyat va imtiyozlardan oqilona foydalanmoqda. Tumanidagi To‘rtko‘l mahallasida yashovchi yakka tartibdagi tadbirkor Gulzira Xo‘janiyozova ham muvaffaqiyatli ishbilanmonlardan



biri. U charm mahsulotlaridan maxsus bosh kiyimlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ygan. Shu orqali tadbirkor ayol mahalliy ishlab chiqarish rivojiga munosib hissa qo‘shmoqda.

— Seximiz 60 kvadrat metr maydonda joylashgan bo‘lib, u yiliga 950 dona maxsus bosh kiyim ishlab chiqarish quvvatiga ega. Ushbu loyiha orqali 7 kishining bandligini ta‘minladik, — deydi Gulzira Xo‘janiyozova.

Tadbirkor bugun o‘z mahsulotlarini Rossiyaga ham yetkazib bermoqdaki, bu korxonaning raqobatbardoshligi va eksport salohiyati yuqori ekanidan dalolat beradi.

Shuningdek, tumanidagi Beruniy mahallasida Oysulton Allamova ayollar sumkalarini ishlab chiqarish bo‘yicha yangi loyihani muvaffaqiyatli boshlagan. Mazkur tadbirkor yiliga 10 ming dona sumka ishlab chiqarish imkoniga ega bo‘lib, ko‘plab yangi ish o‘mini yaratdi.

— Ushbu loyihamizning umumiy qiymati 200 million so‘m bo‘lib, shundan 150 million so‘mi o‘z mablag‘larimiz va 50 million so‘mi bank krediti hisobidan qoplangan. Mahsulotlarimizni ichki bozorga yetkazib bermoqdami. Kelajakda faoliyatimizni kengaytirib, qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratishni maqsad qilganman, — deydi Oysulton Allamova.

To‘rtko‘l tumanida “Cristall mega star” mas‘uliyati cheklangan jamiyati tomonidan 5 ta brend ostida kir yuvish mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda.

Mahsulotlar mamlakatimizning barcha hududlaridagi ichki bozorlarga kirib bormoqda. Ayni paytda eksportga ham yo‘naltirilyapti. Asosiysi, korxonada 15 fuqaroning bandligi ta‘minlangan.

Qolaversa, sifatli va zamonaviy tibbiy xizmatlar ko‘rsatadigan ikkita yangi klinika ishga tushirilishi

tuman aholisi uchun ajoyib yangilik bo‘ldi. Bu klinikalar nafaqat sog‘liqni saqlashga xizmat qilyapti, balki yangi ish o‘rinlarini yaratib, hudud rivojiga ham hissa qo‘shmoqda.

— Mahallamizda ishga tushirilgan har ikkala klinika ham eng so‘nggi rumsdagi tibbiy uskuna va jihozlar bilan ta‘minlangan. Unda yuqori malakali shifokorlar aholiga sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatishni maqsad qilgan. Bu nafaqat mahallamiz, balki To‘rtko‘l aholisi salomatligini mustahkamlashda muhim qadam bo‘ladi deb umid qilamiz, — deydi “G‘alaba” mahalla fuqarolar yig‘ini hokim yordamchisi Shamsuddin Saburov.

Bugun yurtimizning har bir fuqarosi qalbida shukronalik tuyg‘usi jo‘sh urmoqda. Sababi oddiy: yurtimiz tinch, bozorlarimiz to‘kin, muhimi, odamlarni roz qilib qaratilgan ishlar bir lahza ham to‘xtab qolgani yo‘q. Yangi O‘zbekistondagi uzoqni ko‘zlagan islohotlar, xalq manfaatlarini ustuvor bilish, iqtisodiyotni rivojlantirish yo‘lidagi sa‘y-harakatlar o‘z samarasini bermoqda.

— Dehqonchilik o‘rtidan ro‘zg‘orimizni o‘bod qilib o‘tiribmiz, mehnat qilsang, kam bo‘lmaysan, — deydi O‘zbekiston mahallasida istiqomat qiluvchi Hayitjon opa. — Televizorda ko‘ryapmiz, ba‘zi yurtlar notinch. Vatanimizdagi tinchlik uchun shukrona qilamiz. Ososiysh ta hayot — bebaho ne‘mat. Aynan shu ne‘mat tufayli emir-erkinlikda farzandlarimiz kamolini ko‘rib, oila davrasida baxtli hayot kechirmoqdami. Shunday yurtda hamma qo‘ldan kelganicha halol mehnat qilishi, ezgu ishlar bilan bir-biriga ibrat bo‘lmog‘i kerak.

Bu so‘zlar zamirida katta haqiqat mujassam. Tinchlik bor joyda mehnat qadrlanadi, rizq barakali bo‘ladi.

Minajatdin QUTLIMURATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Munosabat

KELAJAK UCHUN HARAKATNI BUGUNDAN BOSHLANG

Prezidentimiz hududlarga tashrifi, videoselektor yig‘ilishlari, aholi bilan muloqotlar chog‘ida yangi O‘zbekistonni birgalikda qurishimizni aytib, yurtdoshlarimizni faol bo‘lish, islohotlar karvonidan ortda qolmay, yangi g‘oya, istiqbolli loyiha, manfaatli startap, turli yo‘nalishlarda taraqqiyot yo‘lidagi tashabbuslar bilan ham o‘zi, ham davlat va jamiyat rivojiga hissa qo‘yishiga da‘vat etib keladi.

Jumladan, davlatimiz rahbari 2025-yil 14-fevral kuni yoshlar bilan o‘tkazgan ochiq muloqoti, 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan tashkil etilgan bayram tadbiri hamda 19-martdagi kichik va o‘rta biznes vakillari bilan uchrashuvdagi samimiy muloqotlarida nafaqat barchani faollikka chorladi, balki ularning o‘y-fikrlari, tashabbuslarini hayotga tatbiq etishi uchun to‘siq bo‘layotgan omillarni o‘rganib, eng maqbul yechimlarni ko‘rsatdi. Muloqotlardan so‘ng ayni shu qatlarni qamrab olgan qonun hujjatlari — Prezidentning tegishli farmon va qarorlari qabul qilingani ham so‘zimizni isbotlaydi.

Ayniqsa, shu yil 14-iyuldagi “Islohotlarni amalga oshirishda istiqbolli tashabbuslarni yanada qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmon ayni shu — samarali va xalqchil islohotlarda keng jamoatchilik va jamiyatning turli qatlamlari vakillari, xususan, yetuk mutaxassislar, yoshlar, tadbirkorlar, faol fuqarolar va vatandoshlarning ishtirokini qo‘llab-quvvatlashni karrasiga oshirish maqsadida qabul qilindi. Bir so‘z bilan aytganda, zamonaviy, ilg‘or g‘oyalari va istiqbolli tashabbuslarni saralash, tanlab olish va hayotga tatbiq etishning samarali mexanizmlari joriy qilinadigan bo‘ldi.

Bejiz yuqorida ochiq muloqotlarni yodga olganimiz yo‘q. Jumladan, Prezidentimiz 14-fevral kuni yoshlar bilan uchrashuvda o‘zining iste‘dodi, bilim-salohiyati hamda yangi tashabbus va loyihalar bilan tengdoshlariga o‘mak bo‘layotgan yoshlar bilan suhbatlashdi. O‘zbek yoshlarining ingliz tilini mukammal o‘rganishiga ko‘maklashayotgan “linguabarno” onlayn o‘quv kursi muallifi Barno Asqarova, yomg‘ir suvini ichimlik suvga aylantirilgan loyihasi bilan xalqaro tanlov g‘oliblari bo‘lgan Pahlavon va Asilbek, internetda ilmiy kontentlari bilan 700 ming obunachiga ega bo‘lgan Jahongirmirzo Ibrohimov, bir million 600 ming kitobxonni qamrab olgan “Mutolaa” platformasi asoschisi Sirojiddin Olimov, onlayn shaxmat maktabi — “Uzchess” asoschisi Ulug‘bek Ismatov bilan fikr almashdi. Ularning loyihalarini yanada ommalashtirish, mana shunday loyihalar sonini ko‘paytirish uchun qanday shart-sharoit, imtiyoz va imkoniyatlar yaratish kerakligi to‘g‘risidagi yoshlarning taklif-mulohazalariga quloq tutdi.

19-martda kichik va o‘rta biznes vakillari bilan o‘tkazilgan uchrashuvda esa mamlakatimizda muvaffaqiyatli tadbirkorlik faoliyatini yuritayotgan ishbilanmonlar bilan fikr almashib, ularni qiyinab kelayotgan muammolarni hal etish bo‘yicha topshiriqlar berdi. Birgina misol, uchrashuvda Markaziy Osiyoda yagona bo‘lgan yuqori texnologik bionik protez (qo‘l, oyoq), ekzosklet ishlab chiqaradigan tadbirkor Mustafo Mingboyevning nogironligi bor odamlarga xizmat

ko‘rsatishi uchun o‘ziga xos qulayliklarga ega binoga ehtiyoji borligini eshitib, davlatimiz rahbari shu joiyning o‘zida tadbirkorning munamosini hal etdi.

Bu misollarni keltirishimizdan maqsad — davlat va jamiyat uchun foydali tadbirkorlar yoki izlanuvchan yurtdoshlarimizning istiqbolli loyihalari ba‘zida kichik sabablarga ko‘ra rivojlanmasligi yoki umuman hayotga tatbiq etilmay qolib ketishi mumkin. Ayrim istiqbolli tashabbuslar uchun alohida e‘tibor, o‘ziga xos sharoit kerak bo‘ladiki, ular davlat va jamiyat rivojiga hissa qo‘shishi, xalqimiz farovonligi yo‘lida katta naf keltirishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan misollardan ko‘rish mumkinki, yurtdoshlarimiz orasida yangi fikr, g‘oyaga boy, salohiyati yuqori, dunyoqarashi keng insonlar bisyor. Faqat ularni izlab topish, saralash va bo‘yobga chiqishga turki berish kerak, xolos.

Farmon bilan tashkil etilayotgan “Kelajak uchun” istiqbolli tashabbuslar forumi aynan shu maqsadda amalga oshirilmoqda. Har yili bir marta o‘tkaziladigan forum yil davomida tashabbusli loyihalarni yig‘ib, saralab boradi. Uning doirasida top loyihalar tanlab olinadi. Top-10 istiqbolli loyihalar davlatimiz rahbari ishtirok etadigan forum yalpi majlisida taqdimot qilinadi. Ularni hayotga tatbiq etish bo‘yicha barcha kerakli chora-tadbirlar amalga oshirilishi nazarda tutilmoqda. Xususan, tashabbuskor ishbilanmon yurtdoshlarimizga istiqbolli startaplarini yo‘lga qo‘yishi uchun kredit va grantlar ajratilishi, soliq, bojxona va boshqa rag‘batlantirishlar berilishi rejalashtirilmoqda.

Quvonarlisi, forum uchun topshirilgan loyihalarning hech biri e‘tibordan chetda qolmaydi. Ularning hayotga tatbiq etilishi uchun kerakli shart-sharoit va imkoniyatlar yaratib beriladi. Forum haqida ma‘lumotlar olish, unda ishtirok etish uchun anketa yuborish onlayn shaklda, yangi ishga tushiriladigan “kraud” platformasi orqali ortiqcha qog‘ozbozliklarsiz, shaffof tarzda bo‘lishi tanlovga ishonchni yanada otktiradi.

Forum mamlakatimiz taraqqiyotiga xizmat qiladigan yangi biznes startaplar, ijtimoiy loyihalarni saralaydi va iste‘dodli, yangi fikr va tashabbusga ega insonlarni O‘zbekistonning porloq kelajagi yo‘lida faol ishtirok etishi, yurtimizdagi ortga qaytmas islohotlarda o‘z o‘rni va hisssasi bo‘lishiga shart-sharoit va imkon yaratishi shubhasiz.

Zero, adiblarimizdan biri aytganidek, iste‘dodlarni asrash, qo‘llab-quvvatlash kerak. Jamiyatda o‘z o‘mini topa olgan iste‘dodlar uning rivojiga hammadan ham ko‘proq foyda keltiradi.

Sanjar ESHMURODOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!

KONSTITUTSIYAVIY ODIL SUDLOV – qadr-qimmat, erkinlik va adolat garovi



Saidbek AZIMOV,
O‘zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyaviy sudi eksperti,
2-darajali adliya
maslahatchisi

Boshlanishi 1-betda

Gap inson huquq va manfaatlarini ta’minlash haqida borar ekan, mustaqil va odil sudlovga erishish masalasi bu borada muhim o‘ringa chiqadi. Binobarin, mustaqil va kuchli sud hokimiyati inson huquqlarini ta’minlashning ustuvor yo‘li, demokratik huquqiy davlatning asosiy omilidir.

Yurtimizda odil sudlovga erishish maqsadida soha tubdan va izchil isloh qilinmoqda. So‘nggi sakkiz yilda sudlarga doir 70 ga yaqin qonun, farmon va qaror qabul qilindi. Ularning moddiy-texnik bazasi yaxshilandi. 2024-yil 1-noyabrden boshlab sudlarning ichki hujjatlar aylanmasi to‘liq elektron shaklga o‘tkazildi. Bu kabi ko‘rilayotgan choralar, yaratilayotgan qulayliklar natijasida aholi va tadbirkorlik subyektlarining sudlarga ishonchi ortib bormoqda. Buni o‘tgan yili sudlarda 3 milliondan ortiq masala ko‘rib chiqilgani misolida ham ko‘rish mumkin.

Buning negizida fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish, odil sudlovni so‘zsiz ta’minlash chora-tadbirlarini kuchaytirish, sudyalarni hamjamiyati organlari rolini oshirish yotibdi.

Albatta, bugungi sudlar faoliyati 7-8 yil oldingi sudlar faoliyatidan tubdan farq qiladi. Bunga osonlikcha erishilgani yo‘q, keyingi yillarda sud-huquq sohasini demokratishtirish va liberallashtirish, aholi va tadbirkorlar huquq hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishda sud hokimiyatining roli va ahamiyatini oshirishga qaratilgan qator muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Birinchidan, Prezidentimizning 2016-yil 21-oktabrdagi “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bilan 2017-yil 1-apreldan Jinoyat, Jinoyat-protsessual, Fuqarolik protsessual kodekslari va boshqa qonun hujjatlariga odil sudlov samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim o‘zgartirishlar kiritildi.

Jumladan, jinoyatni sodir etishda gumon qilingan shaxslarni ushlab turish muddati 72 soatdan 48 soatga, qamoqqa olish va uy qamog‘i tarzidagi ehtiyoj choralarini qo‘llash, shuningdek, dastlabki tergovning eng ko‘p muddati 1 yildan 7 oyga, fuqarolik ishi bo‘yicha sud qarorini nazorat tartibida qayta ko‘rib chiqish muddati 3 yildan 1 yilga qisqartirilishi kabi muhim vazifalar belgilandiki, bular anachadan buyon ushbu jarayon qatnashchilarining haqli e‘tirozlariga sabab bo‘lib kelayotgan edi.

Ikkinchidan, davlatimiz rahbarining 2017-yil 21-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bilan Oliy sud va Oliy xo‘jalik sudi fuqarolik, jinoyi, ma‘muriy va iqtisodiy ishlari bo‘yicha sud hokimiyatining yagona oliy organiga — Oliy sudga birlashtirildi.

Keyinchalik viloyat, shahar va tuman darajasidagi sudlar yagona sudlarga birlashtirilib, yagona tizim yaratildi, bu esa aholining sudlarga murojaat qilish jarayonini sezilarli darajada, aniqrog‘i, jiddiy tarzda yengillashtirdi.

Uchinchidan, Fuqarolik protsessual, Iqtisodiy protsessual kodekslar va Ma‘muriy

sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeks yangi tahrirda qabul qilindi.

To‘rtinchidan, 2018-yil 4-aprelda “Sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi.

Jinoyat kodeksiga dalillarni va tezkor-qidiruv faoliyati natijalarini qalbakiylashtirish uchun jinoyi javobgarlikni nazarda tutuvchi moddalar kiritilgani uchun huquqni muhofaza qiluvchi va sud organlari mansabdor shaxslarining javobgarligi yanada oshirildi.

Ushbu islohotlar natijasida **tazyiq ostida olingan ko‘rsatuvlardan dalil sifatida foydalanishga chek qo‘yildi**. Sud ishlarini tahlil qilganda ular faqat sud muhokamasi davomida har tomonlama tekshirilgan va aniqlangan dalillarga asoslangani aniqlanadi.

Beshinchidan, Prezidentimizning 2019-yil 6-yanvardagi “Sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tayyorlash, sudyalarni va sudlar apparati xodimlarini qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan Sudyalarni oliy kengashi huzuridagi Sudyalarni oliy maktabi tashkil etildi.

2020-yil 1-sentabrdan boshlab sudyalik lavozimlariga faqat sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tayyorlash kurslarida o‘qishni muvaffaqiyatli tamomlagan shaxslar tayinlanishi belgilandi. Bu borada yana shunday tartib o‘rnatildiki, sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tayyorlash kurslarida o‘qish dasturini bajarmagan yoki



taklif etilgan sudyalik lavozimini egallashni rad etgan tinglovchilar o‘qish davrida olingan stipendiya summasini davlat budjetiga to‘liq miqdorda qoplab beradigan bo‘ladi.

Oldinchidan, 2019-yil 14-yanvarda qabul qilingan “Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun bilan jabrlanuvchilar, guvoh va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarining hayoti, sog‘lig‘i va mol-mulkini himoya qilishning huquqiy kafolatlari belgilab berildi.

Bundan tashqari, sud sohasida ko‘p yillardan buyon o‘z yechimini topmay kelayotgan muammoli masalalar yuzasidan Prezidentimizning o‘ndan ortiq farmon va qarori qabul qilinib, uchta kodeks va ayrim qonunlarga odil sudlov sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

Sud-huquq sohasida qabul qilingan qonun hujjatlari asosida fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish, adolatlga erishish, sud tizimini takomillashtirishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy, tarkibiy va institutsional o‘zgarishlar amalga oshirildi.

Ha, yangi O‘zbekiston taraqqiyotning yangi bosqichiga ishonch bilan qadam qo‘ymoqda. Bunda inson sha‘ni va qadr-qimmat masalasi barcha yo‘nalishlardagi tarixiy yangilanishlar o‘zagini tashkil etadi. Bu tamoyilning hayotga tatbiq etilishi, birinchi navbatda, 2023-yil 30-aprelda referendum asosida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda o‘z ifodasini topdi.

Yangilangan Bosh qonunimizda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida aks etgan inson huquq va erkinliklarining



deyarli butun doirasi hamda milliy huquq tizimi yutuqlari mustahkamlab qo‘yildi. Unda inson huquqlarining tabiiy mohiyati e‘lon qilinib, “inson huquq va erkinliklari har kimga tug‘ilganidan boshlab tegishli bo‘ladi”, “bevosita amal qiladi”, “yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir

bilan bog‘liqligi falsafasiga binoan, birinchi o‘rinda inson huquqlari va erkinliklari turadi. Qonunlar insonlar mushkulini yengillashtirib, ularga eng yaxshi hayot tarzini ta’minlashi zarur degan oljanob maqsad belgilangan. Ya’ni ushbu normada biz “Inson — jamiyat — davlat” tamoyilining amaliy ifodasini ko‘rishimiz mumkin.

Mustaqil va kuchli sud hokimiyati demokratik huquqiy davlatning asosiy instituti sifatida e‘tirof etilgan. Yuqorida aytganimizdek, mamlakatimizda milliy sud-huquq tizimi keng qamrovli isloh qilinmoqda. Bu fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini amalda va samarali himoya qilishni ta’minlash, sudyalarni hamjamiyati rolini oshirish, shuningdek, qonun ustuvorligi prinsipiga so‘zsiz rioya etishga asoslanadi.

Sud hokimiyati tizimida Konstitutsiyaviy sud alohida o‘rin egallaydi. U nafaqat normativ-huquqiy hujjatlarining Konstitutsiyaga muvofiqligini nazorat qiladi, balki davlat organlarining huquqiy xulq-atvori bo‘yicha yo‘riqnomalarni

Konstitutsiyamizda belgilangan eng muhim maqsad — inson manfaatlarini har tomonlama

ta’minlashni bugungi kunda hayotning o‘zi talab qilmoqda. Shu bois, qonunchilik va ijro hujjatlarida inson huquq va erkinliklari ustuvorligi konstitutsiyaviy prinsipi hayotga tatbiq etilishini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

va u qonun bilan muhofaza qilinadi”, degan normalar mustahkamladi. Ushbu normalar milliy qonunchilik tizimida asosiy hisoblanib, inson huquqlari sohasidagi davlat siyosatining negizidir.

Jumladan, Konstitutsiyada “O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi”, deb belgilab qo‘yilgan.

Konstitutsiyamizning “to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qilishi” normasi ma’nosi uning qoidalariga aniqlik kirituvchi va rivojlantiruvchi normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan yoki yo‘qligidan qat’i nazar, hech qanday shartlarsiz amalga oshirilishi lozimligini anglatadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada belgilangan davlat va fuqaroning bir-biriga nisbatan o‘zaro huquq va majburiyatlar

shakllantiradi, huquqiy ishonchlilikni oshirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, asosiy huquqiy hujjat sifatida Konstitutsiyaga ishonchni mustahkamlashga ko‘maklashadi.

Konstitutsiyaviy odil sudlov konstitutsiyaviy nazoratning oliy shakli, alohida talab, zamonaviy demokratik davlatning zarur instituti hisoblanib, Konstitutsiya ustuvorligini ta’minlash va mamlakatda qonuniylik muhitini, inson huquqlari va erkinliklari kafolatlarini yaratishning ishonchli garovi sifatida namoyon bo‘ladi.

Bu tizim mamlakatimiz huquqiy amaliyotida juda yangi hodisadir. O‘zbekiston 1991-yil avgust oyida mustaqillikka erishgach, davlat huquqiy sohada tub o‘zgarishlarni amalga oshirish, eski ma‘muriy-buyruqbozlik tizimidan yangi huquqiy tartibotga o‘tishni ta’minlash maqsadida qator yangi qonunlar qabul qilish ehtiyoji tug‘ildi. Bunda Bosh qonun tamoyillari va normalari hayotga real tatbiq

etiladi, Konstitutsiya ustuvorligi esa qonun ijodkorligi faoliyati va huquqni qo‘llash amaliyotining asosiy shartidir.

Huquqiy davlat shakllanishining eng muhim sharti Konstitutsiyaning qonunlar va qabul qilingan boshqa normativ-huquqiy hujjatlardan ustunligini ta’minlashdan iborat, bu uning alohida huquqiy himoyasi zaruratini nazarda tutadi. Demokratik huquqiy davlat tamoyillarining hayotga tatbiq etilishi bevosita Konstitutsiyaning himoya qilish mexanizmining qanchalik samarali amal qilishiga bog‘liq. Ushbu mexanizmining asosiy belgilovchi tarkibiy qismi konstitutsiyaviy nazoratdir.

Konstitutsiyaviy sudning davlat oliy organlari tizimidagi o‘rni qonunchilik tizimi birligini ta’minlash, undagi ziddiyatlarni bartaraf etish, barcha normativ-huquqiy hujjatlarining Konstitutsiya qoidalariga muvofiqligini ta’minlash zarurati bilan belgilanadi. Konstitutsiyaviy odil sudlovni amalga oshiruvchi organning faoliyati hokimiyatlarining bo‘linishi tamoyillariga asoslangan davlat mexanizmining muhim jihati hisoblanadi, chunki har bir organning o‘ziga yuklangan vakolatlariga rioya etishini nazorat qilish imkonini beradi.

Konstitutsiyaviy sud qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar hujjatlarining Konstitutsiyaga muvofiqligi to‘g‘risidagi ishlarni ko‘radigan sud organidir. Konstitutsiyaviy odil sudlov haqida gap ketganda, avvalo, 2021-yil 27-aprelda mamlakatimizda “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonun qabul qilinganidan alohida ta’kidlash lozim.

Ushbu qonun Konstitutsiyaviy sudning vakolatlarini kengaytirish va uni shakllantirish tartibini yanada demokratishtirish orqali uning samaradorligi va obro‘sin oshirish, mustaqilligini mustahkamlashga qaratilgan bilan ahamiyatlidir.

Qonunda Konstitutsiyaning ustuvorligi, tortishuv va taraflarning teng huquqliligi kabi yangi tamoyillar o‘z aksini topgan. Muhim xususiyatlaridan yana biri — unda Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish huquqiga ega subyektlar doirasi kengaytirilgan. Ular sirasiga Vazirlar Mahkamasi, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman), Oliy Majlisning Bola huquqlari bo‘yicha vakili (Bolalar ombudsmeni), O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil, shuningdek, fuqarolar va yuridik shaxslar kiradi.

Fuqarolar va yuridik shaxslarga ularning konstitutsiyaviy huquqlari Konstitutsiyaga mos kelmaydigan muayyan ish bo‘yicha qo‘llanilgan qonun bilan buzilgani to‘g‘risidagi shikoyatlar bilan Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish huquqi berilgan qonunning asosiy yangiliklaridan hisoblanadi.

Mazkur mexanizm joriy etilishi Konstitutsiyamizning har bir shaxsning huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish

kafolatini beruvchi moddasini hayotga tatbiq etishga xizmat qiladi.

Konstitutsiyaviy odil sudlov tizimi muayyan tashkiliy-huquqiy shartlar mavjud bo‘lgandagina samarali va to‘liq amal qiladi.

Bularga quyidagilarni kiritish mumkin: — funksional, institutsional, tashkiliy, moddiy va moliyaviy ta’minlanganlik; — konstitutsiyaviy odil sudlov va sudyalarni mustaqilligi kafolatlari tizimi mavjudligi;

— hokimiyatlar bo‘linishi tamoyilining qat’iy ta’minlanishi;

— konstitutsiyaviy odil sudlovni amalga oshirish, ya’ni konstitutsiyaviy sud ishlarini yuritishning yaxshi yo‘lga qo‘yilgan mexanizmi;

— konstitutsiyaviy odil sudlov predmeti qat’iy belgilangan;

— Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilish huquqiga ega subyektlarning yetarli doirasi belgilangan.

Bundan tashqari, konstitutsiyaviy odil sudlovning yetarli darajada moddiy va moliyaviy ta’minlangani, yuridik sohada chuqur bilim va ko‘nikmalarga ega malakali kadrlar mavjudligi, jamiyatda huquqiy madaniyat va huquqiy ongning zarur darajada bo‘lishi ham muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda yangi O‘zbekistonning muvaffaqiyatli rivojlanishi konstitutsiyaviy tuzum barqarorligi, Konstitutsiyada belgilangan huquqiy qadriyat va normalar qonunchilikda aks etgani bilan ifodalanadi. Aynan Konstitutsiya jamiyat va davlatni demokratik huquqiy rivojlantirishning asosiy g‘oyalari, norma va yo‘nalishlarini o‘zida mujassamlashtirgan va eng yuqori normativ-huquqiy darajaga ko‘targan.

Umuman olganda, o‘tgan yillar davomida mamlakatimizda konstitutsiyaviy odil sudlovni rivojlantirishning jahon tendensiyalarini hisobga olgan holda o‘zbek konstitutsiyaviy odil sudlov tizimining o‘ziga xosligi va xususiyatlaridan kelib chiqib, izchil rivojlanib borayotgan konstitutsiyaviy odil sudlov modeli yaratildi.

Konstitutsiyamizda belgilangan eng muhim maqsad — inson manfaatlarini har tomonlama ta’minlashni bugungi kunda hayotning o‘zi talab qilmoqda. Shu bois, qonunchilik va ijro hujjatlarida inson huquq va erkinliklari ustuvorligi konstitutsiyaviy prinsipi hayotga tatbiq etilishini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lidagi izchil demokratik o‘zgarishlar va islohotlar huquqiy davlatni mustahkamlash, qonun ustuvorligi, konstitutsiyaviy odil sudlovni ta’minlash, shuningdek, har bir fuqaroning huquq, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Zero, odil sudlov qadr-qimmat, erkinlik va adolat garovidir. Bunga erishish esa keyingi yillarda yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy mohiyati — inson qadrlari ulug‘lash, bugungi yashayotgan kundan roziligiga erishish, ertangi kunga ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.



Kun mavzusi

OTMLari abituriyentlari statistikasida aks etmaydi. Lekin ular ham oliy ta'lim olishdek ezgu maqsad yo'lidagi faol ishtirokchilardir. Ularning bu tanlovi yoshlarimizning o'ziga ishonchi ortganidan, dunyoqarashi kengayib, nafaqat mahalliy, balki global mehnat bozorida ham bemaol raqobat qila olishga intilayotganidan dalolat beradi.

Uchinchi va ehtimol eng fundamental o'zgarish yosh avlodning hayotiy qadriyatlari va muvaffaqiyat haqidagi tushunchalari transformatsiyasidir. Jamiyatimizda uzoq yillar davomida qo'shtimoq ichidagi bir stereotip hukmronlik qildi: oliy ma'lumotli bo'lish o'ziga xos obro', ijtimoiy mavqe belgisi, hatto uylanish yoki turmushga chiqishda ham muhim sanalardi. Ko'pchilik uchun qaysi sohada bo'lishidan qat'i nazar, qandaydir diplomga ega bo'lish hayotiy maqsadga aylanib qolgandi. Bu esa, o'z navbatida, mehnat bozorida jiddiy numatanosibliklarni keltirib chiqardi. Iqtisodiyotga real foyda keltira olmaydigan, amaliy ko'nikmalari yo'q, ammo qo'lida diplomi bor kadrlar armiyasi shakllandi. Bugungi avlod, internet va global axborot oqimi sharoitida ulg'ayayotgan yoshlar ancha pragmatik va natijaga yo'naltirilgan holda fikrlamoqda. Ular uchun diplom shunchaki obro' uchun



YANGI MARRA ZABT ETILDI

O‘ZBEKISTONLIK O‘QUVCHILAR XALQARO KIMYO OLIMPIADASIDA ENG YAXSHI NATIJA KO‘RSATDI

Boshlanishi 1-betda

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi huzuridagi Fan olimpiadalari markazi ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda 26 nafar, 2021-yilda 41 nafar, 2022-yilda 45 nafar o'quvchi g'oliblikni qo'lga kiritgan. 2023-yil yurtimiz o'quvchilari tomonidan 91 ta, o'tgan yili 128 ta medallar jamg'arildi. 2025-yilning 6 oyida esa o'quvchilarning 17 ta xalqaro olimpiadalarda munosib ishtirok etib, 170 ta medalni qo'lga kiritdi.

Umumiy medallar soni yurtimizning barcha hududidagi o'quvchilar hissasiga to'g'ri kelayotgani yanada quvonarli. Biroq Xalqaro kimyo olimpiadasida g'olib bo'lgan bu yilgi to'rt nafar o'quvchining uch nafari Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabda tahsil oladi. 11-sinf o'quvchisi Daler Rahimov o'tgan yilda ham, bu yil ham maktabga oltin medal tuhfa etdi. 11-sinf o'quvchisi Mirjahon Muhammadov o'tgan yilgi bronzani birato'la oltinga aylantirdi. Biloliddin Zuhridinov esa birinchi bor qatnashib, kumush medalga ega bo'ldi.

Muvaffaqiyat siri

— 2022-yildan buyon Xalqaro kimyo olimpiadasida qatnashib kelyapmiz. Unda aynan bizning maktabdan g'oliblar ko'p bo'lishi aslida tabiiy holat. Bunda hammasi shaffof. Bellashuvlar Fan olimpiadalari markazi tomonidan tashkil etiladi. Avvalo, maktab, keyin tuman, shahar bosqichlari o'tkazilib, saralangan o'quvchilar respublika bosqichida yana 3 marta saralanadi. O'zbekiston nomidan xalqaro olimpiadada qatnashish uchun esa eng kuchli 4 talik olinadi. Saralashlar orasida o'quvchilarga trening darslar o'tilib, umumiy terma jamoa shu tarzda tayyorlanadi. Biz ham o'quvchilarimizni saralab olib, maktabimizda olimpiada guruhi tashkil qilganmiz. Natijalarimiz yildan yilga o'sib borayotganida, albatta, berilayotgan imkoniyatlar muhim omil bo'lyapti. Nafaqat o'quvchilar, balki o'qituvchi ham munosib rag'bat olyapti. Bu ham asosiy omillardan biri. Chunki bunday rag'bat o'quvchini ham, o'qituvchini ham o'z ustida ko'proq ishlashga undayapti, — deydi ixtisoslashtirilgan maktabning Xalqaro olimpiadalariga tayyorlash markazi treneri Mohira Boltayeva.

Trener o'qituvchi ta'kidlaganidek, bunday ixtisoslashtirilgan maktablar juda katta umidlar bilan tashkil etilyapti. Davlatimiz rahbari ta'lim muassasalarida kimyo va biologiya fanlarini o'qitishda Abu Ali ibn Sino

OLTIN AVLOD VAKILLARI NIMA DEYDI?

Daler RAHIMOV,
Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchisi:

— Avval ham boshqa Xalqaro kimyo olimpiadalarida qatnashganman. Oltin medalla osonlikcha erishib bo'lmaydi. Birinchi oltinni olishdan oldin ketma-ket 4 marta kumush olganman. Ilk bor 8-sinfda Xalqaro olimpiadaga qatnashgandim. O'sha yili hech qanday medal ololmaganman. Bu qattiq alam qilgan. Chunki bizning oilada o'qish masalasi doim birinchi o'rinda turgan. Bolaligidan ko'plab to'garaklarga borganman. Bo'sh vaqtim umuman bo'lmagan. Shunday bo'lsa-da, uydagilar meni qo'llab-quvvatlab, oldinda turgan g'alabalarga ruhlantirdi. O'z ustimda ko'proq ishladim. 9-sinfda Mendeleyev kimyo olimpiadasida kumush medal oldim. 10-sinfda ham shunday natija bo'lsa-da, maqsadni baland oldim. Albatta, oltin medalga erishaman degan niyat qildim. Doim yaxshilarga intilishga odatlanganim shunday chog'larda o'zimni qo'lga olishimga yordam beradi. O'tgan yili mehnatlarim samarasi o'laroq 9-o'rin bilan oltin medalga sazovor bo'ldim. Bu yuqori natija edi. Chunki bundan oldingi oltin 22-o'rin bilan olingan. Ushbu muvaffaqiyatim ortida turgan ota-onamga, ustozlarimga rahmat aytaman. Menga havas qilib turgan tengdoshlarimga esa, avvalo, irodani qo'lga olishlarini so'rayman. Chunki iltim osonlikcha egallanmaydi. Uyuqni kamaytirib, o'z ustida tinimsiz ishlagan odamgina ilm cho'qqilarini zabt etishi mumkin.



Muntazam o'z ustimizda ishladik. Ustozlar bergan vazifalarni bajardik. O'tgan yilgi olimpiada masalalarini qayta-qayta ishladik. O'zimizga vaqt belgilab tezliligimizni oshirishga harakat qildik. Xatolarimizni qo'rib chiqib, bir-birimiz bilan muhokama qilganimiz, o'zaro fikr almashganimiz bilim va tajribamizni yanada oshirdi. 90 dan ziyod davlatdan kelgan 400 ga yaqin o'quvchi orasida g'alabaga erishganimizdan juda xursand bo'lib ketdik.

Ha, yuqoridagi aytganimizdek, O'zbekiston nomi endi nafaqat sportda, san'atda, shu bilan birga, ilmda ham dong tarataypti. "Sportchilarga mashina, uy beriladi, nega olimpiada g'oliblari qo'llab-quvvatlanmaydi?" deganlar, aslida, o'shanda ham mavjud bo'lgan, bugin esa besh barobarga ortgan fan olimpiadalari g'oliblari oladigan pul mukofoti — qariyb bir milliard so'mga yetganiga nima der ekan?..

Munajat MO'MINOVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

ABITURIYENTLARDA TANLOV IMKONIYATI KENGAYGANI IJOBIY HODISADIR



Abdvahob BO'RIYEV,
Termiz davlat muhandislik va agrotehnologiyalar universiteti bo'lim boshlig'i

Ayni kunlarda mamlakatimiz bo'ylab hayajon va ulkan umidlar hukmron. Minglab yigit-qizlar bir necha yillik zahmatli mehnat va tayyorgarlikning yakuniy pallasida — davlat oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlari jarayonida ishtirok etmoqda. Har bir test varaqasi ortida bir insonning kelajak orzulari, umidlari va intilishlari mujassam.

Darhaqiqat, bu yurtimizda an'anaviy tarzda yilning eng muhim va mas'uliyatli davrlaridan biri sanaladi. Aynan mana shunday muhim pallada ijtimoiy tarmoqlarda muhokamalarga sabab bo'lgan bir mavzu ochildi: joriy yilda davlat OTMLariga kirish uchun test sinovlarida ishtirok etuvchi abituriyentlar soni so'nggi yetti yildagi eng past ko'rsatkichni tashkil etib, 700 mingga ham yetmadi. Bir qarashda bu statistik ma'lumot aksariyatimizni sergak torttiradi, yoshlarning ilgma, oliy ma'lumotga ishtiyoqi so'nib borayotgandek, ta'lim tizimida qandaydir inqiroz yuz berayotgandek tashvishli xayollarga yetaklashi mumkin. Axir 2020-yilda bu raqam qariyb bir yarim millionga yetgan edi-ku! Ammo vaziyatga shoshma-shosharlik bilan baho berishdan tiyilib, jarayonning tub



Davlat OTMLariga kirish uchun ariza topshirgan abituriyentlar soni kamayishini salbiy hodisa yoki ta'lim tizimidagi muvaffaqiyatsizlik sifatida talqin qilish voqealikni noto'g'ri baholash bo'lar edi. Bu, aksincha, mamlakatimiz ta'lim tizimida yuz berayotgan sog'lomlashish, modernizatsiya va erkinlashuv jarayonlarining tabiiy va mantiqiy natijasidir.

mohiyatiga chuqurroq nazar tashlasak, bu aslida xavotirga emas, balki xursandlikka sabab bo'ladigan, mamlakatimiz ta'lim va ijtimoiy hayotidagi sog'lom va ijobiy o'zgarishlarning tabiiy in'ikosi ekaniga amin bo'lamiz. Bu raqamlar pasayish emas, balki tanlov, imkoniyatlar va eng asosiysi, yosh avlod tafakkurining sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilayotganidan dalolat beruvchi muhim indikatoridir. Har qanday tahlilni obyektiv dalillardan boshlash maqsadga muvofiq. Mamlakatimizda oliy ta'lim bilan qamrov darajasi hech qachon bugungidek yuqori cho'qqiga chiqqan emas. Uzoq yillar davomida bu ko'rsatkich kam foizlar atrofida tebranib turgan, bu ko'plab iqtidorli yoshlar uchun oliy ta'lim eshiklarini ochish qiyin ekanini anglatardi.

So'nggi yillarda ta'lim jamiyat rivojining bosh ustuvor yo'nalishi sifatida belgilanib, sohadagi tub va fundamental islohotlar tufayli bugun qamrov darajasi keskin oshdi. Natijada yoshlarimizning oliy ma'lumot olish imkoniyati ham kengaydi. Shunday ekan, davlat OTMLariga hujjat topshirayotgan abituriyentlar sonining statistik kamayishi umumiy manzaraga soya sola olmaydi. Bu hodisa aslida ta'lim olish imkoniyatlarining bir qolpidan chiqib, diversifikatsiya qilinishi, ya'ni xilma-xillashuvi fonida yuz bermoqda. Bunday murakkab, ammo ijobiy jarayonning bir-birini to'ldiruvchi fundamental sabablari mavjud.

Eng asosiy omil ta'lim bozorida sog'lom raqobat muhiti va tanlov ekanligi paydo bo'lganidir. Yaqin o'tmishda yoshlar va ularning ota-onalari uchun oliy ma'lumot olishning deyarli yagona yo'li davlat universitetlariga kirish edi. Ayni holat tizimda sun'iy ravishda o'ta yuqori raqobati vujudga keltirardi. Bir o'rinda o'nlab, ba'zan esa yuzlab abituriyentning dav'ogarlik qilishi ko'plab yigit-qizlarning bir necha yil umrini faqat testga tayyorlanish bilan o'tkazishiga, muvaffaqiyatsizlikka uchragan taqdirda esa tushkunlikka tushishiga sabab bo'lardi. U

o'z navbatida, davlat OTMLari statistikasidagi raqamlar tabiiy ravishda kamayishiga olib keladi. Bu inqiroz emas, bu birxillikning barham topishi va sog'lom, sifat uchun kurashga asoslangan raqobat muhiti tantanasidir.

Ikkinchi muhim tendensiya globallashuv shamollarining ta'lim sohasiga har qachongidan kuchliroq kirib kelishi va yoshlarning xorijda ta'lim olishga bo'lgan intilishi yuqori darajada ommalashuvidir. Mazkur jarayonda ochiqlik siyosati va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan strategik qadamlar hal qiluvchi rol o'ynamoqda. Faoliyati tubdan isloh qilingan "El-yurt umidi" jamg'armasi eng yorqin misoldir. Jamg'arma orqali har yili yuzlab eng iqtidorli, eng salohiyatli yigit-qiz Oksford, Kembrij, Garvard kabi eng nufuzli ilm dargohlariga to'liq davlat granti asosida o'qishga yuborilmoqda. Ular u yerda nafaqat zamonaviy bilimlarni, balki ilg'or fikrlash tarzini, yangicha madaniyat va innovatsion yondashuvlarni ham o'rganib, ertaga yangi O'zbekistonning oltin fondini tashkil etadigan yetuk kadrlar bo'lib qaytishadi. Bu millat kelajagiga kiritilayotgan eng qimmatli va samarali investitsiyadir.

Shu bilan birga, mustaqil ravishda, ota-onalari ko'magida yoki turli xalqaro grantlarni yutib, chet el universitetlariga o'qishga kirayotgan yoshlar soni ham geometrik progressiya bilan o'sib bormoqda. Internetning hamma uchun ochiqligi, xalqaro ta'lim dasturlari haqidagi ma'lumotlar ko'payishi, yoshlar o'rnatida xorijiy tillarni bilish darajasi keskin ortishi jarayonni yanada tezlashtirdi. Bugun yurtimizda xorijda ta'lim olishga ko'maklashuvchi o'nlab konsalting markazlari faoliyat yuritmoqda. Ilgari xorijda o'qish faqat tor doira uchun mumkin bo'lgan elitar hodisa sanalsa, bugun u O'zbekistonning minglab oddiy oilalari farzandlari uchun real imkoniyatga aylandi. Tabiiyki, jahonning eng yaxshi universitetlariga intilayotgan bu iqtidorli yoshlar ham mahalliy davlat

kerak bo'lgan qog'oz emas, balki real hayotda o'z o'rmini topish, munosib daromad manbaiga ega bo'lish va o'zini shaxs sifatida namoyon etish vositasidir.

To'rtinchi sanoat inqilobi sharoitida shunday zamonaviy kasblar paydo bo'lmoqdaki, ularni egallash uchun to'rt yil universitet partasida o'tirish shart emas. Axborot texnologiyalari (dasturlash, ma'lumotlar tahlili, kibernetika), raqamli marketing, SMM, grafik dizayn, logistika, mobil ilovalar yaratish kabi o'nlab sohalar shular jumlasidan. Olti oylik yoki bir yillik intensiv kurslarda o'qib, amaliy ko'nikmalarni chuqur egallagan Ay-Ti mutaxassis bugungi kunda mehnat bozorida an'anaviy yo'nalishni bitirgan ko'plab bakalavrlardan ko'ra ancha talabgir va yuqori maoshli bo'lishi mumkinligini yoshlar juda yaxshi tushunib yetdi. Ular vaqt eng qimmatli resurs ekanini anglagan holda o'z umrini va ota-onalarining mablag'larini sarflash o'rni, aniq bir hunarni yoki kasbni tezroq egallab, 20-21 yoshidayoq mehnat faoliyatini boshlashni, moliyaviy mustaqillikka erishishni afzal bilmogda. "Bir million o'zbek dasturchi" kabi keng ko'lami loyihalar, shuningdek, yurtimizning har bir hududida ochilayotgan zamonaviy o'quv markazlari ushbu intilishni qo'llab-quvvatlamogda. Bu yoshlarning ilgma befarqligi emas, aksincha, o'z kelajagiga o'ta mas'uliyat bilan yondashayotganini, hayotga aniq rejalar bilan qadam qo'yayotganini ko'rsatadi. Ular an'anaviy ta'lim yo'nalishlariga ko'r-ko'rona ergashmay, o'z qiziqishlari, salohiyati va eng muhimi, bozor talablaridan kelib chiqib, oqilona yo'l tanlamogda.

Albatta, bu jarayonlar davlat oliy ta'lim muassasalariga beparvolik va xotirjamlikka berilish

Bizning ona tilimizchalik shevalarga boy, rangin til dunyoda bo‘lmasa kerak. Istagan so‘zni oling. Toshkentda bir xil, Farg‘ona yo Namanganda boshqacha aytiladi. Viloyatlarni qo‘ying, bir tumanning turli qishloqlarida turlicha talaffuz qoidalari bor. Masalan, u yerda-bu yerda degan so‘zim bor. Toshkentlik o‘tda-bo‘tda, farg‘onalik ag‘da-bag‘da, namanganlik atda-batda, andijonlik ashag‘da-mashag‘da, deydi.

San‘tkorlar orasida aytiladigan latifaomuz bo‘lgan voqea: Toshkentdan yo‘lga chiqqan poyezd Farg‘onaning bir kichikroq bekatiida turib qolibdi. Poytaxtlik san‘tkorlar vagon derazasidan bosh chiqarib, odamlardan so‘rbdilar: **Bo‘t qat?** Tabiiyki, u yerliklar savolni tushunmaganlar. **Bu yer qayer?** — deb so‘ramoqchi bo‘lgan mehmonlarga faqat yelka qisganlar.

Yanglish tushadigan telefon qo‘ng‘irog‘i, adashib keladigan SMS xabari odatiy hodisa. Bir kun mobil telefonimga shunday yozuv tushdi: **“Bilol, maqvos?”**.

Bilol ismli oshnasiga bu majhul savolni yuborgan kim edi, qiziqmadim. Lekin bu xat menga hanuz nash‘a qiladi, har zamon esimga tushsa, savdoyi odamlardek da‘f‘atan kulib yuboraman. Gap shundaki, adabiy tilimizda **maqvos** degan so‘z yo‘q. Uni tushunish uchun, avvalo, toshkentlik bo‘lish kerak, so‘ng yozuvda ko‘rish emas, quloq bilan eshitish kerak. Shundagina **maqvos nima qilyapsiz**, degan jumlaning shevadagi qisqargan shakli ekanini ilg‘ash mumkin. **Nima qilyapsiz — nima qilvotsiz — nima qivossiz — maqvos!** Ana sizga bir jumlaning “o‘sib yetilish” jarayoni! Yana ham to‘g‘rirog‘i, tilga beparvolik natijasida bir o‘zbekcha so‘z birikmasining boshiga tushgan ko‘rgilik! Bir yonda shevachilik, bir yonda so‘zning yarmini yamlab yutishga bo‘lgan tabiiy mayl qo‘shilib **maqvos** degan mavhum tovushlar yig‘indisi paydo bo‘libdi.

Menga yanglish kelgan SMS xabari xayolinni olib qochdi. Yalpi savodxon mamlakatlar safida turgan yurtimizda **maqvos** degan yozuv qanday paydo bo‘ldi? Yarim tunda mobil telefoniga xabar jo‘natgan odam, albatta, bog‘cha bolasi yoki boshlang‘ich sinf o‘quvchisi emas. — Garchi adabiy til boshlang‘ich sinfdayoq o‘qitiladi. — Bunday savodsizlikning ildizi nimada? Majburiy

“

Kelmoq — yoqimli so‘z. Biz mehmondo‘st xalqimiz, ketmoqdan ko‘ra, kelmoqni xush ko‘ramiz. Uyimizga qayliq bo‘lib kelgan qizni kelin deymiz. Agar kel o‘zagidan yasalgan so‘zlarning ildizini ochsa, bir kitob dunyoga kelar. Bu ham kelajakda bo‘ladigan ishlar. Kelajak deb ataluvchi kunlar kelajak.



Kelishuv

Tilimizda **kelishuv** degan chiroyli atama bor. **Yarashqli** tushunchaga yarashqli nom. Kelishuv uchun qarshi tomonlar bir yerga kelishib, munozara qiladilar, turli qutblarda joy tutgan fikrlar qadam-baqadam yaqinlashib, oxiri bir yerga keladilar. Bu kelishlar jam bo‘lib, **kelishuv** jarayoni sodir bo‘ladi.

Davlat rahbarlarining bir yerda jam bo‘lishi, kelishuvlarga imzo chekishi tinchlik va do‘stlikka xizmat qiluvchi jahonshumul voqealar hisoblanadi. Xalq ongida **kelishuv** ezgulik, oljanoblik timsoliga aylangan. Qarangki, go‘zallik tushunchasi ham shu so‘z o‘zagidan chiqadi. **Kelishgan** qomat, **kelishgan** qiz deganimizda biz chiroyning bosh belgisi sanalgan moslik, uyg‘unlik, muvofiqlikni ko‘zda tutamiz. Yuzdagi qoshu ko‘z, kiprigu qabog‘, labu dahan moslikda,

Erkin VOHIDOV,
O‘zbekiston xalq shoiri

bir-biri bilan kelishib joylashsa, **kelishgan** yuz bo‘lar ekan.

Kelishuvning bir turini yarashuv deymiz. Agar muxolif tomonlar kelishib olsalar, buning oti **yarash** bo‘ladi. **Kelishuv** kabi **yarashuv** ham, qarangki, chiroy belgisi ekan. Qoshu ko‘z, qaddu qomatni kelishgan desak, egnidagi kiyimni yarashgan, deymiz.

Kelmoq — yoqimli so‘z. Biz mehmondo‘st xalqimiz, ketmoqdan ko‘ra, kelmoqni xush ko‘ramiz. Uyimizga qayliq bo‘lib kelgan qizni kelin deymiz. Agar kel o‘zagidan yasalgan so‘zlarning ildizini ochsa, bir kitob dunyoga kelar. Bu ham kelajakda bo‘ladigan ishlar. **Kelajak** deb ataluvchi kunlar **kelajak**.

MEZON

YANGI O‘ZBEKISTON



BARCHA YO‘LLAR O‘RDADA TUTASHADI



Turizm

Sh bilan bo‘lib ko‘hna Qo‘qon shahriga kelmaganimizga ham ancha bo‘lgandi. Yaqinda shahar bo‘ylab oilaviy sayr qildik. Ravon yo‘llar, bir-biriga uyg‘un qurilgan xizmat ko‘rsatish va dam olish maskanlaridan zavqlandik. Biz kabi sayru sayohat qilayotganlar ko‘p, xorijlik sayyohlar bilan ham uchrashdik. Shahar tinch, osuda.

Latif shahar — Qo‘qondagi Xudoyorxon o‘rdasi qurib bitkazilganiga 150 yildan ortiq vaqt bo‘ldi. Qo‘qonning so‘nggi xoni tomonidan qurilgan tarixiy yodgorlik dastlab 3 ta qism va 114 xonadan iborat edi. U o‘z davrining mahobatli imoratlaridan bo‘lgan. Hozirgi kunda uning kichik qismi va 19 xonasi saqlanib qolgan bo‘lsa-da, mazkur yodgorlik sayyohlarning katta qiziqishiga sabab bo‘lmoqda. Uzoq-yaqindan kelib bu inshootning o‘ziga xos me‘moriy yechimlari, islmiy naqshlari, boy rang-tasvirlari haqida bilishni istovchilar safi kundan kunga ortib bormoqda.

— Qadim shaharga deyarli har kuni mahalliy va xorijlik sayyohlar kelishini hisobga olib yagona chipta joriy qilganmiz. Bu muzey-qo‘riqxona tarkibida bo‘lgan 12 ta muzey va ziyoratgohda bir oy davomida sayohat qilish imkoniyatini beradi. Xorijlik mehmonlar uchun bu imtiyozlar 7 kun qilib belgilangan, — deydi Qo‘qon davlat muzey-qo‘riqxonasi rahbari Muhammadrashod Mavlonqulov. — Xorijlik sayyohlar o‘rda maydoni, xonlik davriga oid arxitektura yodgorliklari uchun ko‘p vaqt ajratadi. Tarixdan so‘zlovchi imoratlar va buyum-ashyolar me‘moriy qurilishi, dizayni, ranglari, qo‘l mehnati bilan yaratilgan shakllari bilan ularni hayratga soladi.

Ikki ming yillik tarixni o‘z ichiga olgan maskan qadimdan betakror san‘ati, adabiyoti, tadbirkoru hunarmandlari bilan yetti iqlimga dong taratgan. Bu yerda hunarmandlik va xalq amaliy san‘atining turli yo‘nalishlari yuksak darajada taraqqiy etgan. Ustoz-shogird an‘analari, hunarmandlarning oilaviy sulolalari uning sir-asrorlarini ajdodlardan avlodlarga yetkazib kermoqda.

Hunarmandlikning yog‘och o‘ymakorligi, qog‘ozgarlik, chilangarlik, zargarlik, pichoqchilik kabi ko‘plab turlari ravnaq topmoqda. Usta hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlash, iqtidorli yoshlarni rag‘batlantirish borasidagi ishlar qadim shahar taraqqiyoti, madaniy hayotini dunyo hamjamiyatiga yanada yaqinroq tanishtirish imkoniyatini beraypti.

— Bu yerga kelishdan oldin Buxoro, Xiva, Samarqand, Toshkent shaharlarida bo‘ldim. Taassurotlarim bir olam, — deydi argentinalik Roksan Lobarnara. — Ayniqsa, tabiati juda go‘zal, iqlimi, ob-havosi qulay ekan. Sodda, samimiy kishilarning xushfe‘lligi e‘tiborga molik. O‘zbek taomlari, milliy kiyimlari, urf-odatlari va an‘analari boshqa yurtda uchramaydi. Kasbim iqtisodchi bo‘lgani uchun o‘zbekistonliklarning yashash tarzi, turmushi bilan qiziqdim. Gaplashganimda ularning orzu-umidlari, maqsadlari ko‘pligidan hayratlandim. Odamlar taraqqiyot sari intilayotgani juda yaxshi. Yurtimizdagi tinchlik, xotirjamlik, do‘stlik va birodarlik ularning baxtiyorligi, maqsad va rejalarni amalga oshirish imkoniyatini beradi.

— O‘zbekistonga ikkinchi bor kelishim. Avvalgi safar faqat Samarqand va Buxoroni tomosha qilgandim, bu safar ko‘hna Xivada ham bo‘ldim, — deydi Buyuk Britaniyadan

kelgan sayyoh Janik Fayn. — Qadimiy shaharlarda saqlanib qolgan me‘moriy obidalarining har biri o‘ziga xos tarix. Ularning qurilishi va bezagi juda mukammal. Qo‘qon va Marg‘ilon haqida ko‘proq bilim kelyapti. Bu yurt haqida, uning tarixi va buguni, tabiati, urf-odatlari va milliy o‘ziga xosligidan hikoya qiluvchi kitoblari, fotoalbomlari ko‘proq nashr etilsa, yanada yaxshi bo‘lardi.

Turizmning rivojlanishida nafaqat tarixiy me‘moriy obidalar, balki o‘sha yerning saranjom-sarishtaligi, ozodaligi ham katta ahamiyatga ega. Xudoyorxon o‘rdasi hududida keyingi yillarda salmoqli ishlar bajarildi. Noyob daraxtlar, butalar va gullar hududning yanada ko‘rkam bo‘lishiga zamin yaratdi. Bu yer odamlarning dam olib, hordiq chiqaradigan eng sevimli maskaniga aylanib boryapti. Ko‘kalamzor maydonlarda qunab o‘ynayotgan jajji bolajonlar, berilib kitob mutolaa qilayotgan yoshlar, davra qurib suhbatlashayotgan yigit-qizlarga ko‘zingiz tushadi.

— Hudud landshaftini boyitish harakatidamiz, — deydi Qo‘qon shahri Obodonlashtirish boshqarmasiga qarashli “Xudoyorxon o‘rdasi” bog‘i brigadiri Erkinjon Ikromov. — Bu yil uchinchi bor xalqaro hunarmandlik festivali o‘tkazildi. Bunga hozirdan tayyorgarlikni boshlab yuborganmiz. Shu kungacha noyob, mahalliy



iqlim sharoitimizga mos bo‘lgan 52 ming tupga yaqin daraxt niholi ekdik. Yashil va soya-salqin maydonlarda turli seminarlar, davra suhbatlari, tadbirlar o‘tkazish urfga aylanib borayotir.

O‘tmishda Qo‘qonda 600 ta masjid, 67 ta madrasa, 26 ta qorixona, 100 dan ziyod xonaqoh, 6 ta markaziy bozor, 30 ga yaqin karvonsaroy va boshqa me‘moriy obidalar bo‘lgan. Bu tilsimotlarning bir qismi turfa urushlar, bir qismi esa sobiq sho‘ro tuzumi qurboniga aylanib, yo‘q bo‘lib ketgan.

— Qo‘qon madaniy qo‘riqxonasi tarkibiga kiruvchi Tapaqo‘rg‘on majmuasida Ashurali

Zohiriy muzeyini tashkil etish harakatidamiz, — deydi Qo‘qon davlat muzey-qo‘riqxonasi Tapaqo‘rg‘on arxeologik yodgorligi filiali mudiri Gulruh Shodiyeva. — Tapaqo‘rg‘on arxeologiya yodgorligi shahar yoshini aniqlagan hamda qadimgi o‘rda o‘mida joylashgani bilan ahamiyatli. Bu yer Qo‘qon shahrining eng qadimiy asosi. Mazkur arxeologik yodgorlikni rekonstruksiya va konservatsiya qilib, ochiq osmon ostidagi muzeyga aylantirish sa‘y-harakatidamiz. Ho‘qand milodiy era boshlarida nafaqat yirik shahar, balki kichik davlat poytaxti bo‘lgan. U haqda ko‘plab tarixiy manbalarda yozilgan. Qo‘rg‘on xarobaga aylangach, uzoq yillar davomida qabriston bo‘lgan. Bu yerda ko‘plab alloma, adib va mudarrislar dafn etilgan. Ushbu yodgorlik 2019-yilda moddiy madaniy meros obyektlari milliy yo‘yxatiga kiritilgan. 2022-yilda arxeologik qazuv ishlari natijasida yodgorlik arkining tuzilishi aniqlangan.

Turizm obyektlariga eltuvchi yo‘nalishlar jozibadorligini oshirish maqsadida qo‘shimcha illyuminatsiyalar o‘rnatildi. Qo‘qon yog‘och o‘ymakorligi bo‘yicha Jahon hunarmandlari shahri maqomini olgan kentlardan. Shu maqsadda Qo‘qon hunarmandligi an‘analarga mos yangi ustaxona, mahalla va xonadonlarda zarur sharoitlar yaratildi, zamonaviy xizmat ko‘rsatish tarmoqlari ishga tushirildi. Qo‘qonning boy madaniy yodgorliklari, qutlug‘



ishga tushirildi. Hamkorlikda yaratilgan kontent o‘tgan yili Yaponiya xalqaro turizm filmlari festivalida ikkinchi o‘rinni qo‘lga kiritdi. Sayyohlar oqimini yanada oshirish maqsadida Xitoy, Janubiy Koreya, Saudiya Arabistoni va Qozog‘istonga to‘g‘ridan to‘g‘ri yangi aviaqatnovlarni yo‘lga qo‘yish borasida ishlayapmiz.

Joriy yil 9-aprel kuni hududlarning turizm salohiyatini yanada oshirish hamda xorijiy hamkorlar bilan amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarini jadallashtirish yuzasidan Prezidentimiz raisligida o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishda Farg‘onada gastronomik turizm yo‘nalishlari yo‘qligi aytib o‘tildi. Ayni kunda belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash, gastronomik turizm tarmoqlarini ko‘paytirishga oid chora-tadbirlar ishlab chiqayotgan. Chunki Farg‘onacha usulda tayyorlangan osh, soma, kabob singari tansiq taomlar hech bir sayyohni befarq qoldirmaydi.

Viloyatda eko va tibbiy turizmga qiziqish ortmoqda. Endilikda Farg‘ona tumanida 230 gektar, Oltiariqda 149 gektar yerda tibbiy turizm va sanatoriy-kurort zonasi tashkil etiladi. Yozyovon tumanida 284 gektar va Quva tumani Karkidon suv ombori atrofida 250 gektar yerda zamonaviy ekoturizm maskanlarini barpo etishga kirishildi.

Qatarning “JTA International Investment Holding” kompaniyasi Shohimardon qishlog‘ida 100 million dollarlik kurort zonasi, ya‘ni ikkita arqon yo‘li, qiya ko‘targich, osma ko‘priki kabilarini o‘z ichiga olgan turizm loyihasi amalga oshirmoqchi. Viloyatning tog‘li hududi bo‘lgan So‘x tumani hamda Shohimardon va Yordon qishloqlarida tabiatga zarari tegmaydigan, yengil ko‘chma va kamxarj oynavand kapsula uylar va trekking yo‘nalishlari tashkil etiladi. Qirg‘istonning Borken viloyatida joylashgan turizm hududlarini bog‘lovchi yangi abadiy qardoshlik sayyohlik yo‘nalishlari ishlab chiqilib, joriy yilning o‘zida 25,5 ming xorijlik va 160 ming mahalliy sayyoh tashrifni tashkil etish rejalashtirilgan.

— Chegara postlarida o‘tish tizimi soddalashtirilgani o‘zaro bordi-keldi, sayohat, dam olishda yangi imkoniyat eshiklarini ochdi, — deydi Botken viloyati Kadamjoy tumani Haydarkon qishlog‘idan kelgan sayyoh Hasanboy Asirov. — Bolalik chog‘imda Qo‘qonga, Farg‘ona shahriga borganimni eslayman. Shunga ham yarim asrdan oshdi. Bu yerga kelib, shahar va qishloqlarni taniy olmadim. Osmonga bo‘ylashgan imoratlariga qarab, boshimdagi qalpog‘im yerga tushib ketdi. Nihoyatda go‘zal, obod bo‘lib ketibdi. Shu yerda turib, qo‘l telefonim orqali yaqinlarim, birodarlarim bilan bog‘landim, ularni ham bu yerlarga kelishga chorladim.

“Yurgan daryo — o‘z tiringan bo‘yra”, degan ajoyib maqol bor. Buning ma‘nosi, uyd to‘shalgan bo‘yra bir joyda turaverib chang bosib, zax tortib qoladi... Gap shundaki, otobobolarim ham sayru sayohatga, ziyoratga borib turishga chorlashgan. Shunday ekan, sayohat qiling.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri
Sherzod Qoraboyev olgan suratlar.